



TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA YAXSHILASH

Abdimannobova Sevara Abdiqaxxor qizi

Yuristlar malakasini oshirish markazi mas'ul xodimi

e-mail: abdumannobovasevara@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy ta'lim sohasida bugungi kunda uchrayotgan muammo va kamchiliklar, ta'lim muassasalarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi uchun shart-sharoit yaratish, maktablarda o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish tizimini yanada yaxshilash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetini shakllantirishga doir muammolarga samarali yechim topish usullari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta'lim, huquqiy ong, huquqiy ma'daniyat, huquqiy immunitet, respondent, Street law.

Bugungi kunda yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi uchun shart-sharoit yaratish, ta'lim tizimiga xorij amaliyotini joriy etish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rnini va huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash, Konstitutsiya¹ va qonunlar, yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish tizimini va xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning zarur shartiga aylantirish, fuqarolar o'rtasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.



qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish muhimdir.

Huquqiy ta'lim deganda shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, huquqiy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, qonunga itoatkor xulq-atvor odatlarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim shakli tushuniladi². Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqqa nisbatan ijobiy munosabat, qonun talablarini bajarish zarurligini anglash, amaldagi qonunlarni bilish, huquqni hurmat qilish va huquqiy normalariga rioya etishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mamlakatimizda Qonunlar ustuvorligini ta'minlash uchun avvalo jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish darkor.

Buning uchun albatta yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlanishini va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida loyihalarni tashkil etish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga, ularni huquqiy ongini va madaniyatini, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan fuqarolarning xabardorlik darajasini oshirish hamda bu sohada ommaviy axborot vositalarining huquqiy targ'ibot faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Aholining huquqiy ong va madaniyat haqidagi tushuncha va mulohazalari qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida yoshlar o'rtasida [so'rovnoma](#)³ o'tkazilganda “Huquqiy ong va madaniyat haqida tushunchaga egamisiz?” degan mazmunda savol berilganida, ishtirokchilarning ko'pchiligi (75%) “ha” deb javob berishgan bo'lsa, afsuski qolgan respondentlar (25%) “yo'q” degan javobni keltirishgan. Bundan tashqari

² S.Abdimannobova. Huquqiy ta'lim – huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti // “Xalq Konstitutsiyasi bilan huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat sari: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023, – 523 b.

³ So'rovnoma:

https://docs.google.com/forms/d/1maosQj_es5Kdnmc0tfCfjbSYgRRjjWdr2nlw_DlPmt4/viewform?edit_requested=true
www.innovativepublication.uz



so‘rovnomada qatnashgan 53 foiz respondentlar “Aholining huquqiy ongi va madaniyatini qay darajada deb baholaysiz?” degan savolga “past” deb javob berishgan bo‘lsa, “Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda qaysi usullar samarali deb o‘ylaysiz” degan savolga respondentlarning 48 fozi “Maktablarda huquqiy dars soatlarini oshirish”, 57 foiz respondentlar “Maktablarda huquqiy darslar o‘tilish darajasi qay darajada deb baholaysiz?” degan mazmunda savol berilganida, “past” deb javob berishgan. Ushbu ko‘rsatgichlar shuni ko‘rsatadi-ki, maktabda huquqiy fanlar uchun ajratilgan dars soatlarini nafaqat hajmini balki sifatini ham oshirish, o‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish uchun avvalo huquqiy fanlardan dars beruvchi professional pedagog kadrlarni yetishtirib chiqish, bunda, Oliy ta’lim muassasalarida huquq ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun zamon talablariga va xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlari asosida ta’lim berish tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim kesimida ham huquqiy fanlar sonini ko‘paytirish, huquqiy mavzular bo‘yicha ta’lim beruvchi pedagog-o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim. Yuqorida huquqiy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar sanab o‘tildi, bundan tashqari, huquqiy ta’limning sifat darajasi pastligicha qolayotganligi, maktab darsliklaridagi kamchiliklar va zamon talablariga javob bermayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi Farmonining⁴ qabul qilinishi ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish tizimini yanada yaxshilash borasidagi muammolarni bartaraf etishda bir qator vazifalarni belgiladi.

Xususan, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik

⁴ “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi Farmon // URL: <https://lex.uz/docs/-6937312>.



munosabatini shakllantirish, ularda qonunlarga hurmat hissini kuchaytirishga qaratilgan kompleks huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, yoshlarda huquqiy muammolarni hal qilishning amaliy ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan “Street law” loyihasini ommalashtirish, aholining keng qatlamiga huquqiy axborotlarni tez va qulay yetkazishning samarali usullarini joriy etish kabi bir qator tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish tizimini yanada yaxshilash maqsadida huquq fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib borish hamda ularni metodik ta'minlashga qaratilgan Adliya vazirligining maxsus elektron platformasini yaratiladi, maktablarda “Huquq olamiga sayohat” o'quv dasturlarini joriy etiladi, o'quvchilar o'rtasida “Huquq bilimdoni” fan olimpiadasi, huquq fani o'qituvchilari o'rtasida “Eng yaxshi huquq o'qituvchisi” ko'rik-tanlovini o'tkazib borishni joriy etilib, ta'lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar oyligi”ni o'tkazib borish, o'quvchilar va talabalarga huquqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga qaratilgan ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari, videoroliklar, kompyuter o'yinlari va mobil ilovalar yaratish yo'lga qo'yiladi.

Zero yoshlarni qiynayotgan muammolarni bartaraf etish, ayniqsa bu ta'lim, ilm olish bilan bog'liq bo'lsa, bu kabi samarali mexanizmlarning joriy etilishi, amaliyotda uchrayotgan muammolarga muqobil yechimlar berilayotgani mamlakatimizda har sohaga e'tiborning kuchliligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. S.Abdimannobova. Huquqiy ta'lim – huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti // “Xalq Konstitutsiyasi bilan huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat sari: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023, – 523 b.



3. So‘rovnoma: // URL:
https://docs.google.com/forms/d/1maosQj_es5Kdnmc0tfCfjbSYgRRjjWdr2nlw_DlPmt4/viewform?edit_requested=true.
4. “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi Farmon
// URL: <https://lex.uz/docs/-6937312>.